



**“O‘zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyati**

**KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS
TIZIMIGA OID MA’LUMOTLAR
QO‘LLANMASI**



Bekobod – 2023yil

MUNDARIJA

1. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyati tushunchasi.....	3
2. “Korrupsiya” tushunchasi va uning ijtimoiy oqibatlari.....	5
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishning ma’naviy - axloqiy jihatlari.....	7
4. “Jamiyat ishchi - xodimlari odob-axloqi tushunchasi” va uning ma’naviy negizlari.....	8
5. Jamiyat xodimlarining axloqiy sifatlari, faoliyat tamoyillari va xizmat odobi.....	9

1. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyati tushunchasi

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi bugungi keng qamrovli islohotlar davrida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbazarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”, deb alohida ta‘kidaydiň. Binobarin, korrupsiya Jamiyat va davlat hayotidagi ko‘plab islohotlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy qonunchiligidan korrupsiyaga qarshi kurashishga alohida e’tibor berilgan. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi 2008 - yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qildi. 2010-yilda O‘zbekiston Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘ining Istanbul harakat dasturiga qo‘sildi. 2017 - yil 3 - yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi Qonuni qabul qilingani ushbu yo‘nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bu boradagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari mustahkamlandi.

Halollik, o‘z ma’nosiga ko‘ra, to‘g‘rilik, adolat, sofdillik, samimiylilik, iymon so‘zleri bilan uyg‘undir. To‘g‘rilik, halollikni singdirish insoniyat tarixida eng qiyin ishlardan bo‘lgan. Buni zamonaviy tariximizda iqtisodiy va madaniy yuksalishga erishgan davlatlar tarixini o‘rganish davomida ham ko‘rishimiz mumkin.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur hazratlari ham halollik, rostlikni ichki va tashqi siyosat yurgizishda, oila tarbiyasida, dinu - diyonatga rioya etishda bosh qadriyat deb bilganlar. Adolat so‘zi ham “halol, to‘g‘ri, rost, haqqoniy” degan ma’nolarni ifoda etib, dunyodagi barcha ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohot hamda o‘zgarishlar aynan adolat, halollikni o‘rnatishga da’vatdan boshlangan. Halollik va adolatning ro‘yobga chiqishi hukmdorning irodasi bilan birga, Jamiyat hamda fuqarolarning ma’naviyatiga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, to‘g‘rilikni hayotning bosh tamoyili deb bilgan boshqaruva tizimlarida yuksalish va qonun ustunligi barqaror o‘rnatalgan. Xususan, uch ming yillik tariximizga oltin harflar bilan yozilgan: Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur hukmronligidagi davlatlarda ilm – fan, san’at, hunardmandchilik, bunyodkorlik rivojiga aynan halollik va adolat keng yo‘l ochgan.

Zero, rostlik, to‘g‘rilik – har bir ishda mantiqli yondosha olish, haqiqatni o‘z faoliyatining assosiy ko‘rsatkichi va mezoni deb bilish, hamma narsani o‘z nomi bilan atashga o‘tish mexanizmini ifoda etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24 - yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida yangi O‘zbekiston ma’naviyatida halollik va to‘g‘rilik tamoyili, hayotimizning bosh qadriyatiga aylanishi, mamlakatimizdagi ijtimoiy illatlarga, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik ro‘lini oshirish, kerak bo‘lsa, to‘g‘rilik, halollikka barcha vositalar bilan bo‘lsa ham o‘rgatish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tildi. Jamiyatda halollik, rostlik, to‘g‘rilik fazilatiga ega bo‘lishga intilishning yalpi ijtimoiy harakatga aylanishi ijtimoiy zaruriyatdir. “Korrupsiyaga qarshi kurashishda, - deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev – aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, Jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishimiz kerak”.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyati bu kishilarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz ongli munosabati, bilim darajasi, tajribasi, korrupsiyaviy jarayonlarga faol qarshi xatti – harakatlaridir.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy rivojlanish va uning pirovardida rivojlangan, demokratik davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallash goyasi quyidagi ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy hamda intellektual asoslarga tayanadi:

- ❖ Xalqimizning mehnatkashligi, aholi turmush farovonligining uzluksiz yaxshilanayotganligi, odamlardagi shukronalik hamda umrdan roziligi ijtimoiy taraqqiyotimizning muhim omiliga aylanayotganligi;
- ❖ Xalqimizning yuqori intellektual, ma’naviy salohiyatga egaligi, inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dunyo e‘tirofiga sazovor natijalarga erishilganligi;
- ❖ Yurtimizning boy yer osti va yer usti imkoniyatlarga ega egaligi, barqaror taraqqiyoti uchun yetarli suv ta’minoti, qulay iqlim, unumdon tuproqqa egaligi;
- ❖ Vatanimizning markaziy Osiyoning markazida joylashgani, har tomonlama qulay kommunikatsiyalar tizimi bunyod etilgani, havo, temir yo‘l, avtomobil transportining rivojlangan infrastrukturaga ega ekanligi;
- ❖ Xalqimizning bag‘rikeng milliy mentalitetga ega ekanligi, faoliyatda namuna, ibrat bo‘lish tuyg‘usining kuchliligi, yaxshi ishlarda yetakchi bo‘lish fazilati va xalqimizning iyomon - e’tiqodi mustahkamligi, hamkorlik va dostlikka sadoqati, ertangi kunga bo‘lgan ishonchining kuchliligi;

❖ Xalqimiz buyuk ajdodlarimiz ilmiy dahosi, ilmiy hamda ma’naviy jasoratining haqli vorisi sifatida namoyon etishga intilayotgani, dunyo intellektual-ma’rifiy maydonida yuksak iqtidor egasi, barchaga maqbul bo‘ladigan oqilona yechimlar tavsiya eta oluvchi, uzoqni ko‘zlab ish tutuvchi, yuksak ma’naviyatli millat sifatida namoyon etayotgani;

❖ Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Taraqqiyot strategiyasini xalqimiz to‘la qo‘llab-quvvatlayotgani, odamlarning bu jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki ongli ishtirokchisiga aylanganligi.

Yuqoridagi ijobiy asoslar ahamiyatiga salbiy ta’sir etuvchi jihat bu Jamiyatning korrupsiyaga e’tiborsizligi yoki uni normal qabul qilishidir. Shu bois, bugungi kunda davlat va Jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifa – sifatida Jamiyat a’zolarining ongida korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini kuchaytirishdir. Avvalo, ushbu madaniyat insonlar ongida ro‘y berishi va undan keyin ularning harakatiga ko‘chishini ta’kidlash o‘rinlidir. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyati bu xodimlarning korrupsiyani anglashga nisbatan bilim darajasi, tajribasi, korrupsiyaviy munosabatlarga murosasiz ongli munosabati, korrupsiyaviy jarayonlarga faol qarshilik ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi.

2. “Korrupsiya” tushunchasi va uning ijtimoiy oqibatlari

Mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minalash va barqaror rivojlanishiga eng katta to‘siq bu korrupsiya balosidir. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi davlat siyosatida markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Korrupsiya balosiga ilmiy va nazariy adabiyotlarda turlicha ta’riflar berilgan.

2017 - yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida korrupsiya shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi ekanligi belgilangan. Shu sababli, qonunchilikda davlat organlari va fuqarolik Jamiyati institutlarining ushbu illatga qarshi kurashdagи kuch hamda imkoniyatlarini birlashtirish maqsadi nazarda tutilgan. Mazkur illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur ekanligini qayd etish zarur. Zero, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kuchli immunitet shakllanmas ekan, Jamiyat bu balodan qutula olmaydi.

Korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish uning oqibatlarini bartaraf etishdan yaxshidir. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni davlat va Jamiat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora - tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

O‘tkazilgan ko‘plab sotsiologik tadqiqotlarda korrupsiya muammosi iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, ruhiy muammo sifatida qaralib, unga turli nuqtai nazardan yechim topishga intilishlarni kuzatish mumkin.

Ta’kidlash o‘rinliki, ushbu zararli ijtimoiy illat katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat‘i nazar, barcha mamlakatlarda muayyan darajada uchraydi.

Ushbu illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, hanuzgacha u dolzarb muammo sifatida qolmoqda.

Jahon tajribasiga e’tibor qaratsak, korrupsiyaga qarshi kurashish reytingida Daniya, Yangi Zelandiya, Finlyandiya, Singapur va Shvesiya kabi davlatlar peshqadamlik qilmoqda. Ushbu mamlakatlarda bu illatning ildizini batamom quritish borasida amalga oshirilayotgan ishlar e’tirof etilgan holda, ularning tajribasi butun jahon miqyosida keng qo‘llanilmoqda.

Ushbu illat to‘g‘risidagi xavotirli mulohazalar dunyoning eng yuksak minbarlaridan ham tez-tez yangramoqda. BMT Bosh kotibi Antoniu Gutterish jahon hamjamiyati korrupsiya tufayli har yili 2,6 trillion AQSh dollari miqdorida zarar ko‘rayotganini ta’kidlashining o‘ziyoq masalaning mohiyatini namoyon etib beradi.

Mazkur illatning xavfliligini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

Korrupsiyaning salbiy ijtimoiy oqibatlari

Inson huquq va erkinlari kafolatlarini izdan chiqaradi;

Jamiatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi;

Aholining, xalqning olib borilaётган islohotlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi

Ijtimoiy munosabatlardaadolatsizlikni vujudga keltiradi;

Aholi o‘rtasida turli xil noroziliklarni keltirib chiqaradi;

Davlat organlarining barqarorligini izdan chiqaradi va boshqalar.

Korrupsiyaviy qilmishlarning shu kabi ijtimoiy oqibatlari juda og‘riqli bo‘lib, ularni o‘z vaqtida bartaraf etish zarur. O‘z navbatida, bunday illatlarning oldini olishga qaratilgan choralarini amalga oshirish, uning oqibatlarini bartaraf etishdan ko‘ra afzaldir.

O‘quv adabiyotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va Jamiatning umumiyl vazifasi sifatida talqin etilishining asosiy sababi – korrupsiyadan barcha Jamiat a’zolari aziyat chekadi va u Jamiat ish rejasidagi tadbirlarning bajarilishiga salbiy ta’sir

ko'rsatadi. Shu sababdan ham korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat mansabdor shaxslarning, balki Jamiyat barcha a'zolarining umumiy vazifasiga aylanishi darkor.

Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Xodimlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlар Jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir.

Korrupsiyaviy qilmishlar esa, Jamiyatning tabiiy rivojlanishiga zarba berib, unda jiddiy tabaqalashuvni, mulkiy tengsizlikni vujudga keltiradi. Bunda, davlat boshqaruв vakolatlariiga ega bo'lgan muayyan guruh asossiz ravishda boylikka ega bo'ladi va davlatga tegishli vakolatlarni suiiste'mol qiladi. Buning natijasida, Jamiyatda ishlab chiqilgan barqaror qonun va qoidalar obro'sizlanib, fuqarolarning qonunga itoatkorlik darajasi pasayadi, Jamiyatning xavfsizligiga ziyon yetadi.

Hozirda O'zbekistonda Jamiat taraqqiyotining eng asosiy muammolaridan biri boshqaruvda qonun ustunligini to'liq ta'minlash, insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish davlat organlari faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni to'liq bartaraf etishni talab etadi. Shu ma'noda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va Jamiyatning umumiy muammosi hisoblanib, unga qarshi kurashish barcha Jamiat a'zolarining vazifasi hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish deganda Davlat, Jamiat va uning xar bir ischi – xodimini tushunishimiz kerak.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashishning ma'naviy - axloqiy jihatları

Korrupsiyaga qarshi kurashishda xodimlar ongida shakllangan axloqiy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, halollik va to'g'rilik,adolat va tenglik kabi tamoyillar shaxslarni o'zaro munosabatlarda turli haqsizliklardan himoya qiladi. Zero rivojlangan korrupsiyasiz Jamiatni ma'nan yetuk va korrupsiyaga qarshi qarashga ega xodimlar yordamidagina barpo etish mumkin. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy majburiyat, balki ma'naviy burch ham hisoblanmog'i lozim. Shu ma'noda, xodimlarning korrupsiyaga qarshi ongi ularning faol fuqarolik pozitsiyasining ajralmas qismi hamdir.

Ishchi - xodimning o'z haq-huquqlarini tushunishi va uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi, boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilish, xodimning o'z xattiharakati uchun shaxsiy javobgarligi, davlat va Jamiat oldida o'zining huquqiy va

axloqiy mas'uliyatini anglash, xodimlarning tengligi, yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqelikka nisbatan xolisona va tanqidiy yondashuv, hokimiyat bilan, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish qobiliyati, bir mamlakat, Jamiyat va davlatga, shuningdek, unga tegishli huquqiy, madaniy va til makoniga mansublikda ifodalangan fuqaroviyligi o'zlikni anglash – fuqaroviylilikni ifoda etuvchi muhim jihatlar qatoriga kiradi.

4. “Jamiyat ishchi - xodimlari odob - axloqi tushunchasi” va uning ma'naviy negizlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyoti tahlilidan ma'lumki, Jamiyat xodimining odob-axloqi korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim vositasi hisoblanadi. Buni O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni normalaridan ham ko'rish mumkin.

Masalan, Qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora - tadbirlar belgilangan bo'lib, unda davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda ishdan tashqari faoliyatidagi odob - axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob - axloq qoidalarini samarali amalga oshirish belgilangan. Bundan tashqari, Jamiyat xodimlarining Qonunda belgilangan Odob - axloq qoidalarini samarali amalga oshirish orqali uning faoliyatida korrupsiyaviy holatlarning oldi olinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar Jamiyat faoliyatida qonuniylik va ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaning turli ko'rinishlariga chek qo'yishga zamin yaratadi.

Odob - axloq – bu ongning o'ziga xos shakli va Jamiyat (axloqiy) munosabatlari, shuningdek, xodimlar va Jamiyat faoliyati sohasidagi munosabatlarning o'ziga xos shaklidir. Odob - axloqning o'ziga xos tomonlari uni vazifalarining umumiyligi; an'analar, odatlarga suyanish; jamoatchilik fikrini inobatga olish; Jamiyatdagi munosabatlarda uning alohida ahamiyatini belgilovchi subyektiv - shaxsiy xarakteri hisoblanadi. Inson kasbiy faoliyatining har qanday ko'rinishi xodim axloqini o'zining odob - axloq me'yorlari bilan tartibga soladigan korporativ kasbiy etikani shakllantiradi. Kasbiy etika boshqaruv tizimi va eng avvalo, Jamiyat faoliyati uchun alohida ahamiyatiga ega.

Axloq – kishining tabiat, muomala, xatti - harakat odobidir. Aslini olganda, axloq - ma'naviyatning o'zagini tashkil etadi. Ijtimoiy hayotimizda ma'naviyatga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki ma'naviyat – kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi, tushunchasi

bo‘lib, ma’lum bir axloq me’yorlari, qadriyatlar asosida yashash tarzi, umuman, hayotidir.

Shaxsga tegishli axloqning ikki turini farqlash lozim. Birinchisi, universal axloq bo‘lib, u shaxsning yoshi yoki Jamiyatda tutgan o‘rnidan qat’i nazar barcha shaxslarda bo‘lishi lozim. Ikkinchisi, kasbiy odobi bo‘lib, unga shaxsning kasbi yoki Jamiyatda egallagan muayyan ijtimoiy mavqeい sababli ega bo‘lishi talab etiladi.

5. Jamiyat xodimlarining axloqiy sifatlari, faoliyat tamoyillari va xizmat odobi

Jamiyat xodimlarining kasbiy faoliyati, ularning huquqiy va axloqiy madaniyati ular faoliyatida qonuniylikni ta’minlashning muhim shartidir. Bundan tashqari, ularning axloqiy qarash va qadriyatları ularning siyosiy madaniyatini shakllantirishda muhim asos hisoblanadi. Shuningdek, Jamiyat xodimlarining huquqiy madaniyati va axloqi orasidagi bog‘lanishga e’tibor berish lozim. Shu munosabat bilan xodimlarda kasbiy va siyosiy xislatlar bilan bir qatorda, axloqiy fazilatlarini ham shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunonchi, kadrlar siyosati va kadrlar tarkibini shakllantirishda Jamiyat xodimlari odob - axloqiga alohida e’tibor qaratiladi.

Axloq Kodeksida belgilanganidek, Jamiyat ishchi - xodimlari quyidagilarga majbur:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga so‘zsiz rioxha etishi;

mamlakat sha’nini e’zozlash, davlat siyosatiga sodiq bo‘lish;

tashqi siyosat sohasida davlat manfaatlarini qat’iy himoya qilish;

o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiste’molchilikka yo‘l qo‘ymaslik;

xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni doimiy asosda oshirish;

yuqori davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari hamda berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarga biron - bir shaxs, guruh yoki idoralar manfaati nuqtai nazaridan yondashmaslik hamda ularning manfaatlari ifoda etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish;

xizmat safarlari, nazorat tadbirlari davomida mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday turdagи sarf-xarajatlarni boshqa shaxslar hisobidan amalga oshirmaslik;

Jamiyat xodimlari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa huquqbazarlik sodir etishga undovchi murojaatlar haqida, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko‘rilayotgan qonunbuzilishlar haqida o‘zining rahbariga zudlik bilan ma’lum qilish;

chet - el fuqarolari bilan alohida belgilangan tartibga zid ravishda bevosita yoki boshqa shaxslar orqali muloqotga kirishmaslik;

o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmaslik, ularning ta’siridan saqlanish, fuqarolar huquqlari, majburiyatlar va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishga to‘sinqilik qilishi mumkin bo‘lgan xatti - harakatlardan saqlanish;

davlat va Jamiyat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan va xizmatga oid boshqa ma’lumotlarning oshkor etilmasligini ta’minalash yuzasidan barcha choralar ni ko‘rish, ulardan qonunga zid ravishda foydalanmaslik;

axborotlarni tarqatish qoidalariga rioya qilish, Internet jahon axborot tarmog‘i va axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta’minalashning belgilangan tartibiga amal qilish;

biriktirilgan xizmat komp'yuteri hamda elektron tashuvchilardagi xizmatga oid ma’lumotlarning xavfsiz saqlanishini ta’minalash va ularni boshqa shaxslarga tarqatilishining oldini olish choralarinko‘rish;

ijtimoiy tarmoqlarda Jamiyat va tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar faoliyatini muhokama qilmaslik, axloqqa zid iboralarni ishlatmaslik, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan materiallarni joylashtirmaslik fuqarolar va hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘tushiruvchi ma’lumotlar, tuhmat, ig‘vo va uydirmalarni tarqatmaslik;

mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek,

Telefonda so‘zlashish va kiyinish madaniyatiga qat’iy rioya etish;

o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyojkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish;

jamoada sog‘lom ma’naviy muhitni saqlash choralarini ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish;

mehnat jamoasida ishchanlik muhitini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko‘maklashishi;

mehnat jamoasida hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatini obro‘sizlantiradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini muhokama qilishdan tiyilishi kerak.

Odob - axloq qoidalarida korrupsiyaga qarshi kurashga oid muhim talablar ham belgilangan. Ya’ni, ushbu hujjatda ko‘rsatilganidek, davlat xizmatchilar o‘z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariiga yo‘l qo‘ymasliklari kerak. Manfaatlar to‘qnashuvi davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari ularning o‘z xizmat vazifalarini xolisona va beg‘araz bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi.

Jamiyat xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o‘zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo‘ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko‘rish yoki afzalliklarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, Jamiyat xodimi o‘zining rahbariga yoki yuqori turuvchi davlat organiga darhol yozma shaklda xabar qilishi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar olgan Jamiyat mansabdor shaxslari ushbu to‘qnashuvni bartaraf etish yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.